XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-21-111-10-135-K/25 Bekobod tumani

Bekobod tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26 dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qaroriga muvofiq, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 26-dekabrdagi 01-20-220/27-01-38/411-2-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 1105-sonli Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29 dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-26-162-10-0-K/25-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qonunga muvofiq, Bekobod tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari **116 712,210 mln.so‘m** va xarajatlari **116 712,210 mln.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga;**

tuman mahalliy byudjeti xarajatlarining 2026-yil uchun umumiy cheklangan miqdori **2-ilovaga;**

tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlar **3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

4. Tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining 2026-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori.**478,528 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

5. Tumanning tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 718,064 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

6. Quyidagilar:

qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **4-ilovaga;**

yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **5-ilovaga;**

jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **6-ilovaga**;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **7-ilovaga;**

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **8-ilovaga**;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yerlar stavkalari kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **9-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari E.Imamov, tuman soliq inspeksiyasi (R.Rustamov) 2026-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, mahalliy byudjet daromadlari uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin..

8.Tuman soliq inspeksiyasi (R.Rustamov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, yani xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

9. Majburiy ijro byurosi Bekobod tumani bo‘limi (U.Sayidov), tuman soliq inspeksiyasi (R.Rustamov)ga:

hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borish hamda har chorak yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

10. Bekobod tumani “Suv yetkazib berish xizmati” Davlat muassasasi (Z.Karabayev), tuman soliq inspeksiyasi (R.Rustamov)ga:

tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

11. Tuman ichki ishlar bo‘limi (S.Ergashxo‘djayev), tuman adliya bo‘limi (U.Boltayev) tumanda byudjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

12. Xalq deputatlari tuman Kengashi O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan byudjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

13. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsin.

Bunda,

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishi;

byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

14. Tuman hokimligi (Z.Tursunov) tashqi reklama obyektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

15. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Mamadaliyev), Davlat soliq inspeksiyasi (R.Rustamov), iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.O‘rinboyev) bilan birgalikda tumandagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetada qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb- saytiga joylashtirilishini tashkil etsin.

16. Mazkur qaror “Yangi Bekobod” (S.Sheraliyeva) gazetasi va ommaviy axborot vositalari (A.Mamadaliyev)da yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

17. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya”si (I.Egamberdiyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari E.Imamov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **NIZOMIDDINOV ZAYNILOBIDDIN SHAXOBBIDINOVICH**

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-111-10-135-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tuman mahalliy byudjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori to‘g‘risida
MA’LUMOT

ming.so‘mda

№	Daromad turlari	Tuman byudjeti
	JAMI	**116 712 210**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1 727 900
2	Foyda solig‘i	700 350
3	Aylanmadan olinadigan soliq	6 761 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	9 036 860
5	Jismoniy shaxslar mol- mulkini ijaraga berishdan	1 474 000
	Aksiz solig‘i jami	9 297 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	pivo	*0*
6	*benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*9 297 000*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 789 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 656 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 680 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	35 399 000

11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 484 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 983 800
	shundan: qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	*-1 631 200*
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	3 957 600
15	Yig‘imlar	1 865 500
16	Jarimalar	9 781 200
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	119 000

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-111-10-135-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Toshkent viloyatining viloyat byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘m

№	Tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ oluvchilar nomi	Cheklangan miqdor
	JAMI	**116 712 210**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	30 500 345
	shundan:	
	"Mening maktabim" loyihasi	3 708 000
2	Madaniyat bo‘limi	5 476 343
3	Sport bo‘limi	5 541 533
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	3 944 684
5	Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari	3 330 101
6	Suv yetkazib berish xizmati	3 955 949
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 139 081
8	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 485 045
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	361 826
10	Hokimiyat	39 828 180
	shundan:	

	Zaxira jamg‘armasi	1 718 064
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	3 147 659
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	21 186 346
11	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	19 317 091
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	832 032
	shundan:	
	Axborot-kutubxona markazi	832 032

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-111-10-135-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan normativlari

foizda

Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan		Foyda solig‘i		Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)		Pivo		benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar		Aylanmadan soliq	Davlat boji	Jarima	Yig‘imlar
	Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga		Tuman budjetiga	Tuman budjetiga	Tuman budjetiga	Tuman budjetiga
	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB				
Bekobod tumani	0%	10%	0%	14%	100%	100%	0%	15%	0%	0%	0%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	100%	100%	100%	100%	0%	0%	100%	80%	90%	82%

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-111-10-135-K/25 -son
qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffisiyentlar

T/r	Tumandagi MFYlar	**Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun (noturar obyektlar uchun)**		**Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun** (turar joylar uchun belgilangan o‘sish myoridan oshmagan holda)	
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	
1	Ziyoli MFY	0.90	4,110.75	0.90	370.44
2	Ilg‘or MFY	1.00	4,567.50	1.00	411.60
3	Istiqbol MFY	1.10	5,024.25	1.10	452.76
4	Istiqlol MFY	1.25	5,252.63	1.25	514.50
5	Qoraqo‘yli MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
6	Qolg‘ansir MFY	0.89	4,110.75	0.89	366.32
7	Qushtamg‘ali MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
8	Qushchi MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
9	Yoshlik-2 MFY	0.89	4,065.08	0.89	366.32
10	Isfara MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
11	Yoshlik MFY	1.00	4,795.88	1.00	411.60
12	Birdamlik MFY	0.89	4,065.08	0.89	366.32
13	Dexqonobod MFY	0.85	3,882.38	0.85	349.86
14	Dalvarzin MFY	1.10	5,024.25	1.10	452.76
15	Guliston MFY	1.15	5,252.63	1.15	473.34
16	Gulzor MFY	1.00	4,567.50	1.00	411.60
17	Bo‘ston MFY	1.10	5,024.25	1.10	452.76
18	Bunyodkor MFY	1.05	4,795.88	1.05	432.18
19	Bog‘ishamol MFY	1.10	5,024.25	1.10	452.76
20	Bobur Mirzo MFY	1.10	5,024.25	1.10	452.76
21	Beshyuz MFY	1.00	4,567.50	1.00	411.60
22	Achamayli MFY	0.88	4,019.40	0.88	362.21
23	Qo‘qoni MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
24	Do‘stlik MFY	1.10	4,795.88	1.10	452.76
25	Qo‘rg‘on MFY	1.10	4,795.88	1.10	452.76
26	Farxod MFY	1.10	4,795.88	1.10	452.76
27	Mustaqillik MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
28	Yangi hayot MFY	0.89	4,339.13	0.89	366.32
29	Yangi ovul MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
30	Mallaboy MFY	1.10	4,795.88	1.10	452.76
31	Yangi bozor MFY	1.10	5,024.25	1.10	452.76
32	Xos MFY	1.00	4,795.88	1.00	411.60
33	Xonobod MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02

34	Xamza MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
35	Uyas MFY	0.89	4,110.75	0.89	366.32
36	O‘rikzor MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
37	O‘zbekobod MFY	1.10	5,024.25	1.10	452.76
38	O‘zbekiston MFY	1.10	5,024.25	1.10	452.76
39	Shova MFY	1.10	5,024.25	1.10	452.76
40	Terakzor MFY	1.00	4,567.50	1.00	411.60
41	Turon MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
42	Nayman MFY	0.89	4,065.08	0.89	366.32
43	Nazarboy MFY	1.05	4,795.88	1.05	432.18
44	Oltin vodiy MFY	1.05	4,795.88	1.05	432.18
45	Parchayuz MFY	1.00	4,339.13	1.00	411.60
46	Oq tepa MFY	0.95	4,339.13	0.95	391.02
47	Paxtakor MFY	0.89	4,110.75	0.89	366.32
48	Savrak MFY	0.89	4,110.75	0.89	366.32
49	Saryuz MFY	0.89	4,339.13	0.89	366.32
50	Taqachi MFY	1.05	4,795.88	1.05	432.18
51	Pastki Kerayit MFY	0.90	4,110.75	0.90	370.44

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-111-10-135-K/25 -son
qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar boʻyicha mol-mulk soliqlari uchun qoʻllaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent
1.	Bekobod tumani	1.00

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-111-10-135-K/25 -son
qaroriga
6-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1.	Bekobod tumani	1.05	1.05	1.10	1.05	1.00

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-111-10-135-K/25 -son
qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar (qishloq xoʻjaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat koʻrsatish korxonalari va roʻyxati Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq toʻlovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1.	Bekobod tumani	**1.00**	**1.03**	**1.04**	**1.04**	**1.00**	**1.03**	**1.04**	**1.04**

Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-111-10-135-K/25 -son qaroriga
8-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatʼiy stavkalariga qoʻllaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	**Tuman nomi**	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chigʻanoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shagʻal aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1.	Bekobod tumani	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.24

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-21-111-10-135-K/25 -son
qaroriga
9-ilova

Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlar boʻyicha tuman va shaharlar kesimida yerlar stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1.	Bekobod tumani	1,10	1,00

* Qoraqalpogʻiston Respublikasi Joʻqorgʻi Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʼiy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqli